


## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi   | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija  |
|--|--|
| <p data-bbox="152 400 560 743"><b>Yoshlar orasida ekstremizm va radikalizm profilaktikasi hamda mutaassib shaxslarni reabilitatsiya qilishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish</b></p>  | <p data-bbox="667 355 1019 387"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="667 392 1030 424"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <ul data-bbox="595 432 2092 1142" style="list-style-type: none"><li>- Ilg‘or xorijiy tajriba hamda milliy-diniy qadriyatlar asosida yoshlarning ekstremistik hamda radikal g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishining oldini olish, mutaassib shaxslarni sog‘lom ijtimoiy hayotga reabilitatsiya qilishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritib berilgan metodik qo‘llanma tayyorlanadi;</li><li>- Yoshlar orasida ekstremizm va radikalizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish hamda ekstremistik tashkilotlar va ularning g‘oyalaridan ogoh etuvchi maxsus bot va ilova tayyorlanadi;</li><li>- Yoshlarning turli oqimlar ta‘siriga tushib qolishlarini oldini olishga qaratilgan ijtimoiy reklamalar yaratiladi va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtiriladi;</li><li>- Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan mahkumlarni reabilitatsiya qilish hamda ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga xizmat qiladigan zamonaviy metodologiya ishlab chiqiladi.</li><li>- Zamonaviy diniy kazuslar va radikal davolarga nisbatan ilmiy-asosli raddiya taqdim qilishga xizmat qiladigan fatvolar bazasini yaratish.</li><li>- Diniy-ijtimoiy vaziyatlar tahlili bilan bog‘liq monitoring tizimini olib borish va prognozlashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqiladi.</li><li>- Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda diniy jarayonlar bilan bog‘liq feyk xabarlar va radikal kontentlarni aniqlash metodlarni o‘z ichiga olgan ilmiy-uslubiy risola tayyorlanadi.</li><li>- Loyiha doirasida amalga oshirilgan monitoring va tahlillar, olingan yakuniy natija va xulosalar asosida ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash hamda mutaassib shaxslarni reabilitatsiya qilishning milliy modeli asosidagi platforma yaratiladi.</li></ul> <p data-bbox="595 1150 2092 1254"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar <b>Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi</b> tizimidagi tashkilotlar va ta‘lim muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining</b> xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="595 1262 2092 1366"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="595 1374 2092 1437"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p> |